



## HUDUDIY BUDJETLAR DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISHNING USTUVOR VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

**Sharopov Dilshodjon  
Raxmatullayevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Hududiy budjetlar daromad bazasini kengaytirishning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlari kompleks tahlil qilingan. Jumladan, mahalliy budjetlar daromadlarining tarkibi, ularni shakllantiruvchi asosiy omillar hamda mavjud imkoniyatlar o‘rganilgan. Shuningdek, hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, soliq va nosoliq tushumlarni oshirish, mahalliy soliq ma‘murchiligini takomillashtirish orqali daromad bazasini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida hududiy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** hududiy budjet, budjet daromadlari, daromad bazasi, mahalliy soliqlar, nosoliq tushumlar, moliyaviy mustaqillik, soliq ma‘murchiligi, hududiy rivojlanish

## ПРИОРИТЕТНЫЕ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАСШИРЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ РЕГИОНАЛЬНЫХ БЮДЖЕТОВ

**Шаропов Дилшоджон Рахматуллаевич** – независимый исследователь  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация:** Проведён комплексный анализ приоритетных и перспективных направлений расширения доходной базы региональных бюджетов. Рассмотрены структура доходов местных бюджетов, основные факторы их формирования, а также существующие резервы и возможности увеличения доходов. Особое внимание уделено вопросам повышения эффективности использования регионального экономического потенциала, увеличения налоговых и неналоговых поступлений, а также совершенствования налогового администрирования на местном уровне. По результатам исследования разработаны научно обоснованные рекомендации, направленные на укрепление финансовой самостоятельности регионов.

**Ключевые слова:** региональный бюджет, доходы бюджета, доходная база, местные налоги, неналоговые доходы, финансовая самостоятельность, налоговое администрирование, региональное развитие

## PRIORITY AND PROSPECTIVE DIRECTIONS FOR EXPANDING THE REVENUE BASE OF REGIONAL BUDGETS

**Sharopov Dilshodjon Rakhmatullaevich** – Independent Researcher, Tashkent State University of Economics

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of priority and prospective directions for expanding the revenue base of regional budgets. It examines the structure of local budget revenues, key factors influencing their formation, and existing opportunities for revenue growth. Particular attention is given to improving the efficiency of utilizing regional economic potential, increasing tax and non-tax revenues, and enhancing local tax administration. The study also develops scientifically grounded recommendations aimed at strengthening the financial independence of regional budgets.

**Keywords:** regional budget, budget revenues, revenue base, local taxes, non-tax revenues, financial independence, tax administration, regional development

Hududiy budjetlar mamlakat moliya tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ularning barqaror daromad bazasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mahalliy budjetlar orqali ta‘lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlar moliyalashtiriladi. Shu sababli, hududiy budjetlar daromad bazasini kengaytirish va uning barqarorligini ta‘minlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar nomutanosibli, daromad manbalarining cheklanganligi va markazlashgan moliyaviy resurslarga yuqori darajada bog‘liqlik hududiy budjetlar samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mahalliy soliqlar va yig‘imlardan tushumlarning yetarli darajada emasligi, nosoliq daromadlardan foydalanish imkoniyatlarining to‘liq ishga solinmaganligi mazkur sohadagi mavjud muammolardan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan, hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi hududiy budjetlar daromad bazasini kengaytirishning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini tahlil qilish hamda bu borada ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

«Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil sur‘atlarini ta‘minlash yo‘nalishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bunga mahalliy budjet daromadlar manbaini oshirib borish hamda ish-lab chiqarishni rivojlantirish orqali erishiladi».

O‘zbekistonda mahalliy budjetlar xara-jatlarini moliyalashtirishda o‘z daromadlarining yetishmasligi oqibatida ularning yuqori turuvchi budjetlarga qaramligining saqlanib qolishi hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivoj-lanishiga, aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlari samaradorligiga salbiy ta‘sir etmoqda. Shu nuqtai nazardan «xarajatlar ijti-moiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida muta-nosiblikni ta‘minlash, mahalliy budjetlar daromadini

mustahkamlash bo'yicha budjetlar-aro munosabatlarni takomillashtirish» muhim hisoblanadi.

Bu borada mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish respublika va hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar daromad bazasining bar-qarorligi mamlakatimiz ma'muriy hududlari-ning quyi bo'g'inlarida, ya'ni viloyatlar, tuman lar, shaharlar va shu kabilar doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaf-faqiyatli belgilab berishda muhim ahamiyatga ega. "Chunki mahalliy budjetlar barqaror daromad bazalariga ega bo'lsa-da, ular xizmat qiluvchi mahalliy hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratiladi".

Hududlarda mahalliy budjet daromadla-rining oshishi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirish, ish bilan bandlik masalalarini hal qilishda asosiy manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 52-moddasiga muvofiq, mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida respublika budjetidan o'tkaziladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromad va dotatsiyalar bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlashda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim.

Budjetlararo transfertlar va budjet ssudasini ajratish, uning foizlarini to'g'ri, adolatli belgilash zarur. Budjet ssudasi yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki xorijiy davlatga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'dir. Budjet transferti esa budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoki vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari hisoblanadi. Ana shu yo'nalishlar borasida Budjet kodeksiga o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasi yuqoriligi natijasida, keyingi yillarda biznesga qo'shimcha qulayliklar yaratish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan, tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki yashirin iqtisodiyot bilan kurashishda ehtiyotkor bo'lish va iqtisodiy faollikka zarar yetkazib qo'ymaslik kerak.

Davlat rahbarining hududlar-ga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini, hududlarning iqtisodiy o'quv nuqtalari bo'lgan sohalarni qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirishni to'liq va muddatli amalga oshirish zarur. Bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qonunchilikda belgilangan subsidiyalarning ajratilishi va o'z egasiga yetib borishini alohida nazoratga olish talab etiladi.

Kyeyingi yillarda davlat xaridlari tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va tadbir korlar uchun elektron xarid qilish imkoniyatini yanada kengaytirish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda. Ammo vazirlik

va idoralar, mahalliy hokimliklar tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda o'tgan yilda ko'plab salbiy holatlar kuzatilgan. Bu jarayonda jamoatchilik nazoratining kuchayishi samara-siz davlat xizmatlarining oldini olishga xizmat qilyapti. Jamoatchilik nazorati qancha ko'p bo'lsa, tizimda ishonchsizlikdan yaxshilanish sari o'zgarish shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois bu borada yanada ochiq, shaffof, barqaror, samarali va yaxlit davlat xaridlari tizimini yaratishga katta e'tibor qaratish zarur.

Hozirgi vaqtda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan daromadlarni kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmayotganligi, ko'pgina hududlarning daromadlari umum-davlat soliqlaridan ajratmalar, transfertlar hisobidan shakllanmoqda.

Hududiy budjetlar daromad bazasini kengaytirish mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlash va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mavjud tahlillar hududiy budjetlar daromadlarining asosiy qismi markazlashgan manbalarga bog'liq ekanligini ko'rsatib, mahalliy darajada mustaqil daromad manbalarini kengaytirish zaruratini asoslaydi.

Shu bilan birga, mahalliy soliqlar va yig'imlar samaradorligini oshirish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, nosoliq daromadlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hududiy investitsiya jozibadorligini oshirish orqali budjet daromadlarini barqaror ko'paytirish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, hududiy iqtisodiy salohiyatni to'liq ishga solish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ham daromad bazasini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy budjetlar daromad bazasini kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanish orqali hududlarning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Ushbu yo'nalishda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlarining samaradorligini oshirish mablag'lar sarflash uchun belgilangan maqsad bilan bog'liq. Budjet daromadlarini oshirish doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni hududlar daromadlarining mustahkamlanishi, daromadlarni bosh-qarishning takomillashtirilishi va xarajatlarning muvofiqlashtirilishi, ularning belgilangan parametrlarda amalga oshirilishi jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Islamkulov A.K. Budjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish. I.f.d (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati, 2019-yil. –54 b.

2. Usmonov Q.A. Budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2016.

3. Q.Usmanov "Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish" diss. Avtoreferat.

4. Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 204 b.

5. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida). // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. 1-son, yanvar-fevral, 2018. 4-b.

6. Nico Groenendijk, Annika Yansoo. Fiscal federalism in transition countries: the three Baltic state compared. / Public finance and management. / Volume 16, № 3, pp. 255-280, 2016.

7. Xayriddinov A.B. Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta’minlash yo‘llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. – T.: 2011. –b. 13.

8. Barrel, R., Weale, M. The Economics of a Reduction in VAT. Fiscal Studies, Vol. 30, No. 1 (March 2009), pp. 17-30 (<https://www.jstor.org/stable/24440143>)

9. Cevik, S., and et al. Structural Transformation and Tax Efficiency. (IMF Working paper WP19/30). Washington, DC, International Monetary Fund, 2019, –32p.